



THE ROLE OF MAHMUDHOJA BEHBUDI'S ENLIGHTENMENT IDEAS IN THE MORAL EDUCATION AND SOCIAL ACTIVITY OF THE YOUTH OF NEW UZBEKISTAN

Aziza Kadamboevna Maxsudjonova

Senior Lecturer, Department of Social Sciences and Physical Education

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

E-mail: angelochik86@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Mahmudhoja Behbudi, Jadidism, enlightenment, New Uzbekistan, youth education, moral values, social activity, patriotism.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: This article analyzes the enlightenment ideas of Mahmudhoja Behbudi, a prominent representative of the Jadid movement, educator, and thinker, as well as their significance in shaping the moral upbringing and social activity of the youth in New Uzbekistan. Behbudi's views on education and enlightenment, national identity, patriotism, spiritual maturity, and civic responsibility are evaluated as important factors in the upbringing of modern youth. The findings of the study demonstrate the relevance of Behbudi's legacy in enhancing the spiritual and moral development of young people within the framework of New Uzbekistan's development strategy.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARINING YANGI O'ZBEKISTON YOSHLAR AXLOQIY VA IJTIMOY FAOLIYATIDAGI O'RNI

Aziza Kadamboevna Maxsudjonova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

"Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasi, katta o'qituvchi

angelochik86@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Yangi O'zbekiston, yoshlar tarbiyasi, axloqiy

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, ma'rifatparvar va mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari

qadriyatlar, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik.

hamda ularning Yangi O'zbekiston yoshlarining axloqiy tarbiyasi va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Behbudiyning ilm-ma'rifat, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ma'naviy yetuklik va fuqarolik mas'uliyatiga oid qarashlari zamonaviy yoshlar tarbiyasining muhim omili sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari Behbudiy merosining Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi dolzarbligini ko'rsatadi.

РОЛЬ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ИДЕЙ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ И СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Азиза Кадамбоевна Махсуджонова

Старший преподаватель кафедры социальных наук и физического воспитания,

Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

E-mail: angelochik86@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, просветительство, Новый Узбекистан, воспитание молодежи, нравственные ценности, социальная активность, патриотизм.

Аннотация: В данной статье анализируются просветительские идеи выдающегося представителя джадидского движения, просветителя и мыслителя Махмудходжи Бехбуди, а также их значение в формировании нравственного воспитания и социальной активности молодежи Нового Узбекистана. Взгляды Бехбуди на образование и просвещение, национальное самосознание, патриотизм, духовную зрелость и гражданскую ответственность рассматриваются как важный фактор воспитания современной молодежи. Результаты исследования показывают актуальность наследия Бехбуди в повышении духовно-нравственного потенциала молодежи в рамках стратегии развития Нового Узбекистана.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida milliy tiklanish va ma'naviy yuksalish jarayoni izchillik bilan amalga oshirilayotgan bugungi kunda, ta'lim va tarbiya sohasi jamiyat taraqqiyotining bosh mezoniga aylandi. Davlatimiz tomonidan yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, intellektual salohiyatga ega, har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ma'naviy-ma'rifiy

yuksalish davrida tarixiy merosga, xususan, jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy va tarbiyaviy qarashlariga murojaat qilish zaruratga aylanmoqda. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim va tarbiyaga oid ilmiy merosini o'rganish alohida o'rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid Q.Rajabov [1], D.Alimova [2], S.Inoyatov [3], B.Qosimov [4], R.Tursunov [5], G.Ostonova [6], X.S.Ashurova [7], S.A.Abdivohidov [8], Z.B.Axrorova [9], H.O.Saidov [10] va boshqalarning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma'naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlari, ularning jadid ma'rifatparvarligidagi alohida o'rni qisman o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda tarixiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, dialektik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'rifatparvar, adabiyotshunos, dramaturg, faylasuf, siyosiy arbob madaniyatshunoslik nazariyotchisi va amaliyotchisi Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919) jadidchilik harakatining yirik rahnamo va nazariyotchilaridan biri edi. "O'sha davr Turkiston jadidlaridan birortasi siyosiy, ijtimoiy faoliyati hamda bilim doirasining keng va chuqurligi jihatidan unga tenglasha olmas edi" [11], – deb yozgan F.Xo'jayev. Sharqshunos L.Azizzoda esa 1926 yildayoq: "Agar O'zbekistonda fan va madaniyat sohasida Ulug'bek va Navoiydan keyin uchinchi bir shaxsning nomini abadiylashtirish kerak bo'lsa, bu shubhasiz Behbudiyga o'rnatilgan yodgorlik bo'lishi kerak" [12]. Mahmudxo'ja Behbudiyning maorif masalasidan tortib mustaqillik mavzuigacha bo'lgan barcha asarlari – Turkistonning taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag'ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakatni rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida ko'rish mumkin. Albatta, u quruq nazariya bilan cheklanmay, yangiliklarni hayotga joriy etishning amaliy usullarini ham ishlab chiqqan.

Islomiy bilim berishga yo'naltirilgan an'anaviy ta'lim tizimi sharoitida Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi "aqli ilmlar" ("intellektual ilmlar") tushunchasi ostida birlashtirgan tabiiy va ijtimoiy fanlarning keng majmuini o'zlashtirishni ham o'quv dasturiga kiritishni qattiq turib talab qiladi. Bu bilan u ratsionalizm an'anasini qayta tiklashga intiladi. Mahmudxo'ja Behbudiyning maorif masalasidan tortib mustaqillik mavzuigacha bo'lgan barcha asarlari – Turkistonning taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag'ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakatni rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida ko'rish mumkin. Albatta, u quruq nazariya bilan cheklanmay, yangiliklarni hayotga joriy etishning amaliy usullarini ham ishlab chiqqan. Mutafakkir, xususan, tarix va geografiyani o'rganish zarurligiga katta e'tibor qaratadi. Uning fikricha, tarix hamma narsani, jumladan, davlatlarning taraqqiyoti va tanazzuli, odamlar e'tiqodining darajasi, musulmonchilik inqirozining ildizlari, islomni muqaddas

negizlarining noto'g'ri talqin qilinishi sabablarini tushuntirib beradi. Tarixni o'rganmay turib, biror fanni mukammal o'zlashtirib bo'lmaydi. O'zi tomonidan asos solingan "Oyna" jurnalida e'lon qilingan "Tarix va geografiya" maqolasida Mahmudxo'ja Behbudiy: "Hayotga ishonish uchun, komil va odil inson bo'lish uchun tarixni o'rganish va uni bilish lozim. Ilohiy va dunyoviy hayot to'g'risida bilim hosil qilmoqchi bo'lgan har bir kishi tarixni o'rganishi kerak, chunki butun mavjudotning ibtidosi va kelib chiqishi tarix orqali idrok etiladi" [13].

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z xalqining ravnaqini nafaqat ta'lim-tarbiya, ayni paytda, mustaqillik tufayli uning siyosiy maqomidagi tub o'zgarishlar bilan bog'laydi. O'zining ko'plab maqolalari va qizg'in faoliyati orqali u Rossiya imperiyasi va muvaqqat hukumatning mustamlakachilik siyosatini fosh etdi, ularning mahalliy aholining ahvolini og'irlashtirgan qonunlarini tanqid qildi. Lekin, Behbudiyning qat'iy ishonchiga ko'ra, mustaqillikni kurashsiz qo'lga kiritib bo'lmaydi. "Shuni bilish kerakki, – yozadi u, – haq olinur, berilmas. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining diniy va siyosiy haq-huquqlarini kurash orqali qo'lga kiritadi" [14]. Lekin Behbudiy mustamlakachilikka qarshi qon to'kmasdan kurashish tarafdori edi. U Duma faoliyatini diqqat-e'tibor bilan kuzatib borardi va parlament kurashi orqali ko'p narsaga erishish mumkin deb hisoblardi. Turkiston muxtoriyatining qat'iy tarafdori sifatida u taraqqiyotni olg'a siljitishning evolyusion (tadrijiy) shakllarini ma'qullar edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy tasavvurida Turkistonning siyosiy tuzilmasi o'z ichiga davlat saylov organlari (Markaz va Majlis), qoziylik sudlari tizimini bekor qilish va ularning o'rniga davlat sudlarini joriy etish, apellyasiya (shikoyat) komissiyalari va Oliy sud palatasini olishi kerak edi. Mahmudxo'ja Behbudiy ko'targan masalalar ko'lami juda keng. Ular orasida maorif masalalari, siyosiy muammolar, ma'naviyat va axloq-odob ham, nikoh va jinsiy tarbiya masalalari, tarixiy-geografik mavzular ham, til siyosati masalalari, etnografiya muammolari va boshqalar ham bor. Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining asosiy samarasi, shubhasiz, u tomonidan 1913 yilda asos solingan, jadidlarning jarchisiga aylangan va tez fursatda ommalashib ketgan «Oyna» jurnali edi. Jurnal materiallari mavzusi va janriga ko'ra ilmiy-ma'rifiy, adabiy maqolalarga ajratilardi. Jurnal jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotidagi yangi jarayonlarni keng yoritdi, unda, shuningdek, kino, teatr, yangi kutubxona va o'quv zallari haqidagi xabarlar berib borilgan. Jamiyat tartib-intizomi to'g'risidagi ilmiy maqolalar asosiy o'rin tutgan. Yaponiyadan tortib Amerikagacha bo'lgan xorijiy mamlakatlar hayotini yoritishga ham katta e'tibor berilgan.

Jadid taraqqiyparvarlarimiz orasida eng murakkab taqdir egasi, Turkiston jadidlari otasi, publisist, dramaturg, ma'rifatparvar, xalq yo'l boshchisi bo'lgan buyuk siymolardan biri shubhasiz - Mahmudxo'ja Behbudiydir. Vatanimiz tarixida g'oyat murakkab va sinovli davr

bo'lgan XX asrda maydonga chiqqan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatiga asos soldi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyondasi sifatida ilm-fan, ta'lim va tarbiya, adabiyot va san'at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg'or taraqqiyot yutuqlarini o'zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo'lida o'z hayotini baxt etgan fidoyi zotdir. Samarqand jadidchiligida balki, butun Turkiston taraqqiyparvarlari orasida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan mutafakkir sifatida tarixda qoldi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi haqida XX asrning 20-yillarida Hoji Muin Shukrullo o'g'li, Sadridin Ayniy, Laziz Azizzoda singari zamondoshlari tomonidan bir qancha maqolalar yozilgan. Alloma hayoti va faoliyatini yoritishda 1922-1923-yillarda Hoji Muin muharrirlik qilgan "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon" (1923) gazetalarida e'lon qilingan maqolalari muhim ahamiyatga ega manba hisoblanadi. O'z davrida taraqqiyparvar Sadridin Ayniy Behbudiyni "Oliyshon ustod", "Turon dohiysi" kabi nomlar bilan ulug'lagan bo'lsa, Hoji Muin Behbudiy haqida o'z esdaliklari va matbuotdagi maqolalarida alloma o'zining hayotiga yorug' yulduzdek kirib kelgani va uni o'ziga doim ustoz deb bilishini ta'kidlagan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning yaqin safdoshi va shogirdi bo'lgan Hoji Muinning guvohlik berishicha, Behbudiy yoshlik chog'laridan inqilobiy g'oyalari ta'sirida bo'lganligi ayniqsa, 1905 yilgi rus inqilobi unga ta'sir qilganligi va keyinchalik mustaqillikka erishish tinchlik yo'li bilan qo'lga kiritish zarurli to'g'risida fikrga keladi. Behbudiyning eng oliy maqsadlaridan biri har doim Turkiston xalqining ozodligi ekanligini nafaqat Hoji Muin, balki uning izdoshlari ham matbuotda Behbudiya atab chop etilgan maqolalarida e'tirof etib o'tganlar. Hoji Muinning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 1868 yil yilda rus qo'shini Samarqandga bostirib kimgach, Behbudiy oilasi bilan Samarqand uyezdining Siyoxi oblastining Baxshitepa qishlog'iga ko'chib o'tadi va shu erda Behbudiy taxminan 7 yil imom va xatiblik qiladi. Hoji Muin Behbudiya atalgan yana bir maqolasida shunday deydi: Behbudiy afandi Kobud volisining qozisi mulla Zubayrning qozixonasiga mirzolikka kirib, bunda 1-2 oy o'tmay, muftilikka o'tdi. Necha yillar shunda muftilikka bilan kun kechirdi [15]. Ma'lumki, Behbudiy ma'rifat uchun faqat maktab kifoya qilmasligini tushungan holda matbuot va teatr tashkil etish ishlari bilan ham faol shug'ullangan [16].

Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning axloqiy kamoloti, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim ma'naviy manbalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Behbudiy ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilib, yosh avlodni zamonaviy bilimlar, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Uning qarashlarida insonning shaxsiy kamoloti bilan jamiyat ravnaqi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida o'rin egallaydi. Shu bois, bugungi Yangi

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilayotgan “ma’rifatli jamiyat”, “faol fuqarolik pozitsiyasi” va “Uchinchi Renessans” konsepsiyalari Mahmudxo‘ja Behbudiy ilgari surgan g‘oyalar bilan ma’naviy jihatdan uyg‘unlashadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yoshlar tarbiyasida axloqiy poklik, ilmga intilish, millat manfaatiga sadoqat va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni ustuvor deb hisoblagan. Uning fikricha, jamiyatning kelajagi avvalo ta’lim tizimining sifati va o‘qituvchining ma’naviy saviyasiga bog‘liqdir. Mazkur qarashlar hozirgi davrda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yoshlarning ijtimoiy tashabbuskorligi, innovatsion fikrlashi va milliy o‘zlikni anglashida muhim metodologik asos vazifasini bajarmoqda. Ayniqsa, Behbudiyning “Ilm va tarbiya orqali millatni uyg‘otish” g‘oyasi zamonaviy ta’lim islohotlarining mazmun-mohiyati bilan hamohangdir. Yangi O‘zbekiston yoshlari orasida volontyorlik, tadbirkorlik, jamoatchilik faoliyati va ma’naviy-ma’rifiy loyihalarga qiziqishning ortib borishi Behbudiy ilgari surgan faol shaxs konsepsiyasi bilan bog‘liq holda talqin qilinishi mumkin. Chunki jadid mutafakkiri yoshlarni faqat bilim oluvchi emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun mas’ul bo‘lgan ijtimoiy kuch sifatida ko‘rgan. Uning milliy uyg‘onish, ma’naviy erkinlik va tafakkur mustaqilligi haqidagi qarashlari bugungi globallashuv davrida yoshlarning mafkuraviy barqarorligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy jihatdan tahlil qilinganda, Behbudiy merosi Yangi O‘zbekiston yoshlari ongida milliy identiklikni shakllantirish, ma’naviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish hamda ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi konseptual manba sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari zamonaviy yoshlar siyosati, ta’lim-tarbiya tizimi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida muhim nazariy-metodologik asoslardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi Yangi O‘zbekiston yoshlarining axloqiy kamoloti va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilm-ma’rifat, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash va fuqarolik mas’uliyatiga oid qarashlari yoshlarni ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan va jamiyat taraqqiyotiga daxldor shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois Behbudiy merosi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan barkamol avlodni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, mutafakkirning ilg‘or qarashlari yoshlarning ijtimoiy tashabbuskorligini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодадир (1917-1935 йиллар). - Тошкент: Ўзбекистон, 2000; Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. - Тошкент: Маънавият 2002; Ёш бухороликлар // Бухоро мавжлари. 2005. № 2. - Б.26-29.
2. Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифқаларидан. - Тошкент: Фан, 1996.
3. Иноятов С., Ражабов Қ. Бухоро тарихи. - Тошкент: Tafakkur, 2016.
4. Қосимов Б. Исмоилбек Гаспирали. - Тошкент: Гофур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992.
5. Турсунов Р. XX аср бошида Туркистондаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларга миллий тараққийпарварларнинг қарашлари. Тарих фанлари номзоди диссертация автореферати. - Тошкент, 2008.
6. Остонова Г. Историография политических процессов в Бухаре в 1920-1924 г. Автореферат дисс ... канд. Ист.наук. - Тошкент, 2008.
7. Ашурова Х.С. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (XX аср биринчи-чораги). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 2020. - 141 б.
8. Абдивоҳидов С.А. Жадидлар ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий жиҳатлари ва ҳозирги замон. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 2020. - 154 б.
9. Ахророва З.Б. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифатпарварликнинг амалий фаолияти. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 1997. - 140 б.
10. Саидов Ҳ.О. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. - Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 1998. - 138 б.
11. Хўжаев Ф. Уч жилдлик. 1-жилд. Тошкент, 1996, 78-б.
12. Лазиззода Л. Беҳбудий // “Маориф ва ўқитувчи”, 1926 йил, 2-сон.
13. “Ойна”, 1914 йил, 27-сон, 503-504-бетлар.
14. Беҳбудий. Баёни ҳақиқат // “Улуғ Туркистон”, 1917 йил, 12 июн.
15. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – B.25.
16. Tursunboyeva N. Behbudiyning orzusi. // Teatr, 2007 yil, 6-son. – B.27.